

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga investisiyalar

2018 yil yanvar-sentyabrdada viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi 7183,4 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 247,9 % ni tashkil etdi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning taqsimlanishi


	mlrd.so'm	O'sish surati, %	Yakunga nisbatan foiz
--	-----------	------------------	-----------------------


Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar	7183,5	247,9	100,0
--	--------	-------	-------

Shu jumladan

Markazlashgan investisiyalar:	3968,6	350,1	55,3
Byudjet mablag'lari	44,2	16,9	0,6
Davlat maqsadli fond mablag'lari	91,7	138	1,3

	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish surati, %</i>	<i>Yakunga nisbatan foiz</i>
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi fondi mablag'lari	0,6	7,5	0,01
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	1048,0	214,7	14,6
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	2784,1	899,6	38,8
Markazlashmagan investisiyalar	3214,5	183,8	44,7
Korxonalarning o'z mablag'lari	2330,7	243,1	32,4
Aholi mablag'lari	417,4	106,3	5,8
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar (boshqa xorijiy investisiya va kreditlar qo'shilgan holda)	55,4	106,9	0,8
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	411,1	130,9	5,7






2018 yilning yanvar-sentyabrda shahar (tuman)lar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi quyidagicha ifodalangan

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Investisiyalar hajmi mlrd.soʼm</i>	<i>Oʼsish surʼati, foizda</i>	<i>Ulushi %</i>
Viloyat jami	7183,4	247,9	100
Navoiy sh.	3236,4	215,1	45,1
Zarafshon sh.	1696,8	18008,1	23,6
Tumanlar			
Karmana	1039,4	217,8	14,5
Konimex	66,9	529,7	0,9
Qiziltepa	212,0	173,8	3,0
Navbaxor	95,3	78,8	1,3
Nurota	72,3	86,2	1,0
Tomdi	41,7	150,0	0,6
Uchquduq	574,4	2142,0	8,0
Xatirchi	148,2	84,4	2,1
Boʼlinmaydigan hajm	-	-	-

Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar o'sish surati, foizda



Joriy yilda ayrim hududlardagi yirik korxona va tashkilotlar tomonidan kiritilgan investisiyalar hajmining keskin oshib ketishi viloyatdagi investision faoliyatini yuqori suratlarini qayd etmoqda.

Xususan Navoiy viloyatining eng yirik investision loyihalari - “Navoiy metallurgiya kombinasi” DK tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagagi PP-3507 sonli qarori hamda korxonaning manzilli dasturlariga asosan jami 31 ta loyihalari bo'yicha ishlari amalga oshirilmoqda.

Xuddi shunday “Navoiazot” AK negizida - “Ammiak va karbamid ishlab chiqarish” zavodi qurilishi, “Polivinilxlorid (PVX), kausticheski soda va methanol kabi mahsulotlar ishlab chiqarish” zavodlari qurilishi obektlarida loyihalarning yillik moliyaviy o'zlashtirish grafigi tasdiqlanganligi va har yili bo'linishi shu sababli investisiyalarni yillik o'zlashtirishga tasir qiladi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar umumiy hajmining 6423,8mlrd.so'm yoki 89,4 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, 759,6 mlrd. so'm yoki 10,6 foizi noishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirilgan.


2018 yil yanvar-sentyabrda asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarining texnologik tarkibi

	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
Jami, mldr.so'm	7183,4	2627,3	4556,1
<i>Shu jumladan: umumiyoq hajmga nisbatan foiz ko'rinishida</i>			
Qurilish-montaj ishlari	36,0	31,2	38,8
Mashina, uskunalar, transport vositalari ishlap chiqarish va xo'jalik jihozlari	31,4	64,1	12,5
Boshqa harajatlar	32,6	4,7	48,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan qurilish-montaj ishlarning ulushi 27,6 foizli punktga kamaygan, mashina, uskunalar, transport vositalari, ishlap chiqarish va xo'jalik jihozlar qiymati ulushi 2,6 foizli punktga ko`paygan va boshqa xarajatlarning ulushi 25,0 foizli punktga ko`paygan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

(umumiyoq hajmga nisbatan foiz hisobida)
2018 yil yanvar-sentyabr





2018 yil yanvar-sentyabrda asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investisiya va kreditlar.

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga 2839,5 mlrd.so'mlik yoki 346,4 mln.dollar xorijiy investisiya va kreditlar o'zlashtirildi (investisiyalar umumiyligi hajmining 39,5 foizi) 2017 yilning mos davriga nisbatan 785,9 foizni tashkil qildi.

